Lingvokulturologiya sohasida simbolismning ilmiy nazariy tadqiqi

Soibova Gulchiroy Baxtiyorjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda simvolizmning lingvokulturologik jihatlari, ramz, timsol va belgilarning til hamda madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda simvollarning kognitiv va madaniy xususiyatlari, ularning milliy qadriyatlar, madaniy identifikatsiya hamda badiiy tafakkurni ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, simvolizmning tarixiy taraqqiyoti, nazariy asoslari va lingvokulturologiya fanidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: simvolizm, lingvokulturologiya, ramz, timsol, belgi, madaniy identifikatsiya, milliy madaniyat, kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, ramziy ma’no.

Simbolizm lingvokulturalogiya sohasida simvol, timsol, ramzlar va ularning madaniyatlararo aloqa va madaniy identifikatsiyadagi o‘rnini o‘rganadi. Bu soha til va madaniyatning bir-biriga qanday ta‘sir qilishini va ramzlarning ma‘no qatlamlari qanday shakllanishini tahlil qiladi. Lingvokulturalogik tadqiqotlar tilning madaniy jihatlari, ramzlarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanishlari, va turli madaniyatlarda ramzlarning o‘ziga xosligini aniqlash bilan shug‘ullanadi.

Simbolizm (ramz) - so‘z, shaxslar, belgilar, joy yoki mavhum g‘oyalardan foydalangan holda, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosidan tashqaridagi narsalarni ifodalash uchun ishlatiladigan badiiy vosita[1]. Ba‘zi manbalarda berilishicha, mazkur hodisa, san’at va adabiyotda muayyan g‘oyalar, his-tuyg‘ular yoki tushunchalarni maxsus ramzlar orqali ifodalash usuli. Bu yo‘nalish 19-asrning oxirlarida Fransiyada paydo bo‘lgan va asosan shaxsiy tajribalar, ruhiy holatlar va ichki dunyo tasviriga qaratilgan. Keyinchalik butun Evropa va undan tashqarida tarqalgan adabiy va badiiy oqim. U o‘sha davr adabiyotida hukmronlik qilgan naturalizm va realizmga munosabatni ifodalab, dunyoni ifodalash va idrok etishning yangi shakllariga intilishni ifoda etdi.

Belgi badiiy tasvir va yashirin ma‘no tushunchasiga vositachilik qiladi. Biroq, ramz tushunchadan ko‘ra ko‘proq yashirin ma‘no bilan to‘ldiriladi. Badiiy obrazdan farqli o‘laroq, u faktik ma‘noga ega. Ramzning o‘ziga xos xususiyati uning qiyosiy tahlili jarayonida namoyon bo‘ladigan ramziy shaklini saqlab qolgan holda ko‘p qirraliligidir.

Bugungi kunda turli tizimli tillarda ramziy birliklar yaratishda ong, idrok va tafakkurning lingvistik tasviri eng yangi lingvistik muammolardan biridir. Til belgilarini ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish dolzarb lingvistik muammodir. Ammo dunyoning lingvistik qiyofasi empirik bilimlarning ramziy toifalari bilan qanday bog‘liqligi haqida juda ko‘p ishlar mavjud[2].

Mazkur birlik borasida ko‘plab mahalliy va dunyo olimlari o‘z fikrlarini bildirishgan. Masalan, Mashkovtseva A. Yu., ramzni parallelizmning maxsus shakli deb hisoblaydi[3]. Olimaning fikriga ko‘ra timsol parallellik atamalaridan birini talaffuz qilmaslik natijasida hosil bo‘ladi, chunki ikkinchi ham

---

[1]Ахмедова, З. Ш. Символика с точки зрения лингвистической науки // Молодой ученый. — 2022. — № 14 (409). — С. 271-273. — URL: https://moluch.ru/archive/409/90115/

[2] Ахмедова, З. Ш. Символика с точки зрения лингвистической науки // Молодой ученый. — 2022. — № 14 (409). — С. 271-273. — URL: https://moluch.ru/archive/409/90115/

[3] Машковцева А. Ю. Коммуникативно-прагматический потенциал синонимов: словарное представление и текстовые реализации: материалы канд. дис.. — Санкт-Петербург, 2000. — 179 с.

birinchisining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Qolaversa, lisoniy timsollar allegorik fikrlarni yetkazish orqali inson dunyoqarashining kengayishiga ta‘sir ko‘rsatadi, vaqt o‘tishi bilan adabiyotning predmeti o‘zgarishi mumkin, biroq timsollarning ta‘rifi o‘zgarishsiz qolilishi ehtimoli yuqori. Hozirgacha bo‘lgan malumotlar asosida shuni qat’iy ayta olamizki, barcha ramziy ma‘noda o‘zining tom ma‘nosidan tashqarida bo‘lgan narsani ifodalovchi so‘z yoki obyekt tushunchasi umumiydir.

Shunday ekan, tildagi belgilar lingvistik-kognitiv tadqiqot shaklini ifodalaydi. Bundan tashqari, timsol kognitiv kategoriyadir. Ta‘rif va timsollash til belgilariga tenglashtirilganligi sababli, axborot, kommunikativ va kognitiv funktsiyalar ham lisoniy belgilarga tenglashtiriladi. Bunday murakkab xususiyatlar ramzlarning ramziy xususiyatini oshiradi. Tildagi timsollashuv milliy-madaniy-kognitiv assotsiatsiyaning til olamining yagona tushunchasi va qiyofasini shakllantirishdagi roliga ta‘sir qiladi.

Z.D.Popova yozganidek, «kognitiv tilshunoslik XX asrning so‘nggi yigirma yilligida shakllandi, ammo uning predmeti - lingvistik belgilar yordamida ma‘lumotlarni o‘zlashtirish va qayta ishlash xususiyatlari - tilshunoslikka oid birinchi nazariy ishlarda allaqachon tasvirlangan».[4]

V. N. Telia fikricha, “lingvokulturologiyaning qiziqishlari markazi til va madaniyatning zamonaviy madaniy va milliy o‘ziga xoslik doirasidagi o‘zaro ta’sirini o‘rganish va tavsiflash hamda uning ramziy ko‘rinishidir”.

“Lingvokulturologiya tilni madaniy hodisa sifatida o‘rganadi. Bu til o'ziga xos milliy mentalitetning ifodasi sifatida harakat qilganda, milliy tilni aks ettirish orqali dunyoning ma'lum bir qarashidir”.

Zamonaviy dunyoda falsafiy, estetik tafakkur va adabiy tanqidda “tasvir”, “simvol”, “belgi” kabi toifalarga bo‘lgan qiziqish g‘ayrioddiy darajada oshdi, buni o‘quvchini qondirish uchun nashr etilgan son-sanoqsiz lug‘atlar, simvollar va belgilar ensiklopediyalari paydo bo‘lishiga talab ham tasdiqlaydi.

Simvolik til umumbashariy tildir. Simvollar inson tafakkuri, san’ati, urf-odatlari, dini va mifologiyasi taraqqiyotini anglash uchun nihoyatda muhimdir. V.Shmakov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “simvollar tili barcha zamonlar va xalqlar uchun birdek amal qiluvchi haqiqiy umuminsoniy va xalqaro tildir”[5].

Har bir adabiyotda milliy o‘zlikni, ma‘lum bir madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va uning vakillari uchun «mahalliy» va ramziy bo‘lgan o‘ziga xos tasvir va belgilar tizimi mavjud. “Madaniyat o‘zini simvolik shakllar olami orqali namoyon etadi, ular insondan insonga va avloddan-avlodga o‘tadi. Simvollar orqali bizning ongimizga madaniyatning muqaddasligi - qalbning ongsiz tubida yashaydigan va odamlarni dunyo va o‘z tajribasining yagona turida bog‘laydigan ma‘nolar ochiladi»[6] - bu zamonaviy madaniyatshunoslarning fikri. Misol uchun: «Ot» obrazi simvoli, bu ot hayvonining qadim zamonlardan buyon insonlarning og‘ir ishlarida yordamchisi, uzoq safarlarda, urushlarda va marosimlarda hamrohi, xavf xatarlardan saqlovchi do‘sti sifatida ifodalanadi. Hattoki , ot uxlab yotgan egasini ilon hamlasidan qutqargan degan rivoyat ham mavjud. Ot haqida ko‘plab manbalar mavjud bo‘lib, chopqir ot - o‘tkir pichoq, ot - yigitning yo‘ldoshi, ot - yigitning qanoti kabi turli millat va elalar maqollar uchraydi hamda ma’lum millatga hali notanish ko‘plab topishimiz mumkin[7].

Etimologik jihatdan “Simvolizm” so‘zi yunoncha “symbolon” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “belgi” tarjimada belgi ma’nosini beradi.

---

[4] Попова 2001

[5] Шмаков В Предисловие / В Шмаков // Полная энциклопедия символов / Сост В М Рошаль - М Изд-во Эксмо, СПб Сова, 2003 - С 9

[6] Культурология Учебное пособие // Состав и ответств редактор А А Радугин - М Центр, 2003 - С 14-15

[7] Ikromova L. O‘zbek Xalq Maqollarida Hayvon Nomlari Bilan Bog‘liq Ramzlar Talqini, BuxDU xorijiy tillar fakulteti, 4 b.

Ushbu atama birinchi marta fransuz shoiri Jan Moreas tomonidan 18 sentyabr 1886 yilda nashr etilgan “Le Symbolisme”[8] nomli manifesti (manifest so‘zi asosan biror g‘oya, harakat yoki qarashlar to‘g‘risida rasmiy bayonot yoki e'lon ma'nosida ishlatiladi. U ko‘pincha bir guruh yoki harakatning maqsadlari, qadriyatlari va tamoyillarini ifodalaydi. Manifestlar tarixda ko‘plab ijtimoiy, siyosiy va madaniy harakatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar sifatida paydo bo‘lgan va ko‘pincha kuchli va ilhomlantiruvchi til bilan yoziladi, chunki ularning maqsadi keng auditoriyani jalb qilish va o‘z g‘oyalarini tarqatish iboratdir) da ishlatilgan, unda u yangi yo‘nalishning asosiy tamoyillarini shakllantirgan va ramziylikning asosiy tushunchalari - tasvir va g‘oyaning ma‘nosini aniqlagan: «Bizning hayotimizning barcha hodisalari ramzlar san'ati uchun o‘z-o‘zidan emas, balki asl g‘oyalarning nomoddiy aksi sifatida ahamiyatlidir, bu ularning ular bilan yashirin yaqinligini ko‘rsatadi”.[9]

Tahlillarimizga ko‘ra, “Atamalar va tushunchalar adabiy ensiklopediyasi”da simvol turkumiga quyidagi talqin berilgan: “Simvol – o‘z ma‘no jihatida olingan tasvir bo‘lib, u obrazning butun organikligi va bitmas - tuganmas noaniqligi bilan ta‘minlangan belgidir. Simvolga o‘tish orqali tasvir «shaffof» bo‘lib, u orqali «porlaydi» va aniq semantik chuqurlik, semantik istiqbol sifatida beriladi.[10]

Zamonaviy simvolizmning takomillashuvi va taraqqiyotini shoir Dante Gabriel Rossetti va rassom Jon Milleis tomonidan 1848 yilda Angliyada asos solingan Pre-Rafaelit birodarligi bilan bog‘lashadi.[11]

FOYDALLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахмедова, З. Ш. Символика с точки зрения лингвистической науки // Молодой ученый. — 2022. — № 14 (409). — С. 271-273. — URL: https://moluch.ru/archive/409/90115/
2. Ахмедова, З. Ш. Символика с точки зрения лингвистической науки // Молодой ученый. — 2022. — № 14 (409). — С. 271-273. — URL: https://moluch.ru/archive/409/90115/
3. Машковцева А. Ю. Коммуникативно-прагматический потенциал синонимов: словарное представление и текстовые реализации: материалы канд. дис.. — Санкт-Петербург, 2000. — 179 с.
4. Попова 2001
5. Шмаков В Предисловие / В Шмаков // Полная энциклопедия символов / Сост В М Рошаль - М Изд-во Эксмо, СПб Сова, 2003 - С 9
6. Культурология Учебное пособие // Состав и ответств редактор А А Радугин - М Центр, 2003 - С 14-15
7. Ikromova L. O‘zbek Xalq Maqollarida Hayvon Nomlari Bilan Bog‘liq Ramzlar Talqini, BuxDU xorijiy tillar fakulteti, 4 b.
8. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B8%D0%BC%D0%B2%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%B7%D0%BC
9. https://www.culture.ru/s/slovo-dnya/simvolizm
10. Литературная энциклопедия терминов и понятий // Т Н Красавченко - М «Интелвак», 2003 - С 976-978
11. https://znanija.com/task/53892828

[8] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B8%D0%BC%D0%B2%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D0%B7%D0%BC

[9] https://www.culture.ru/s/slovo-dnya/simvolizm

[10] Литературная энциклопедия терминов и понятий // Т Н Красавченко - М «Интелвак», 2003 - С 976-978

[11] https://znanija.com/task/53892828